

WAYS TO DEVELOP THE SERVICE AREA

Artikova Shoxida Ilyasovna,

Basic Doctoral Student Samarkand Institute of Economics and Service

Annotation. The article analyzes the state of development of the service sector and studies its steady growth.

Keywords: Service, needs, growth, macroeconomic policy, productivity.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, xususan, ehtiyojlarini qondirishda, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishda, davlat budjetini shakllantirishda munosib o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sohasi ko'p tarmoqli va turli yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi sohadir. Ushbu soha milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular bir-birining rivojlanishiga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uning rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari boshqa soha va tarmoqlar dinamikasi bilan belgilanadi.

Bizning nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rnini baholash uslubi yuqorida aytib o'tilgan barcha jarayonlar va bog'liqliklarni o'zida aks ettirishi lozim. Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.M.Muxammedov xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy salohiyatini hamda ushbu sohaning aholi turmush darajasini shakllantirishdagi rolini baholashda sof xizmatlar ko'rsatkichidan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Sof xizmatlar sohada band bo'lgan mehnat resurslarining samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Umuman, iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning xizmat ko'rsatish sohasini baholashga doir yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasi diqqatga sazovor va ulardan xizmat ko'rsatish sohasini turli nuqtai nazaridan baholashda foydalanish mumkin. Iqtisodchi E.A.Razomasovanning taklif etgan ko'rsatkichlari sohada band bo'lgan mehnat resurslaridan qanday foydalanayotganligi va sohaga qancha miqdorda investitsiya sarflanayotganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar yordamida xizmat ko'rsatish sohasining qanday rivojlanayotganligini aniqlash mumkin. Lekin ular sohada qancha kishini band etish, bo'sh ish o'rinlarini aniqlash kabi ma'lumotlarini olish imkonini bermaydi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni yuksaltirishda fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish, milliy iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat ham mehnat unumdorligining tez sur'atlar bilan o'sishiga va ishchi kuchi talabining susayishiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Vazirlikning tashkil etilishi mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni

shakllantirishga qaratilgan siyosatni tub mohiyatini ifodalaydi. Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib boradi. Nazarimizda ishchi kuchi talabiga ichki va tashqi bozorlarda raqobat kurashining keskinlashuvi va buning oqibatida sarf-xarajatlarni tejash, resurslaridan oqilona foydalanish masalalarining aktuallasuvi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida xizmatlar va servis sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun tizimli ishlari davom ettirilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Natijada, 2020 yil Samarqand viloyatida 14 trillion 318,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ishlab chiqarilib (ko'rsatilib), o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 foizni tashkil qildi.

Viloyatda kuzatilayotgan davrda xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar soni 214tani tashkil etib, ular tomonidan 4 trillion 429,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 108,2 foizni tashkil qildi (viloyatda jami xizmatlar ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,9%).

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2 trillion 379,8 mlrd. so'm miqdorida baholanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1 foizni tashkil qildi (viloyatda jami xizmatlar ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,6%).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 7 trillion 509,9 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 foizni tashkil qildi (viloyatda jami xizmatlar ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 52,5%).

Aholi tomonidan har xil turdagi xizmatlarga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan infratuzilmani (ijtimoiy, transport – telekommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish imkonini berdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 49,8% xizmatlar sohasini tashkil qiladi. Agar xizmatlar sohasidagi bandlikni tarkibiy tuzilmasini tahlil qilsak, katta ulushni ulgurji va chakana savdo, ta'lim, tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyatlariga tog'ri keladi.

Maishiy xizmatlar sohasini keng qamrovli rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirish va samarali ish bilan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalar hisoblanadi.

Keyinchalik yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Bu O'zbekistonda maishiy xizmatlar ko'rsatish va iste'mol qilishning oqilona tarkibini shakllantirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Hozirgi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim bo'ladi. Uning tarkibiy qismi bo'lib hisoblangan maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholining hayot sifatini oshirish, uning turli xildagi talablarini qondirish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Rivojlangan bozor iqtisodiyotli davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasiga yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish, hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlash mumkin bo'ladi.